



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT RAMZLARI (BAYROQ, GERB, MADHIYA) YARATILISHINING TARIXIY JARAYONI

Millat Umidı Universiteti

BM-104

Adhamov Otabek Jahongir o'g'li

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari — bayroq, gerb va madhiyaning yaratilish tarixi hamda ularning xalq hayotidagi tarixiy o'rni haqida so'z yuritiladi. Maqolada ramzlarning mustaqillikni ifodalashdagi ahamiyati, milliy qadriyatlar va tarixiy meros bilan bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, davlat ramzlarining yosh avlodni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdagi o'rni ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, davlat ramzlari, bayroq, gerb, madhiya, tarix, mustaqillik, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, meros.

Аннотация (на русском языке):

В данной статье рассматривается история создания государственных символов Республики Узбекистан — флага, герба и гимна, а также их историческое значение в жизни народа. Отмечается роль символов в отражении независимости, национальных традиций и культурного наследия. Особое внимание уделяется значению государственных символов в воспитании молодёжи в духе патриотизма и любви к Родине.





Ключевые слова: Узбекистан, государственные символы, флаг, герб, гимн, история, независимость, национальные ценности, патриотизм, наследие.

Annotation (in English):

This article discusses the history of the creation of the state symbols of the Republic of Uzbekistan — the flag, the emblem, and the anthem — and their historical importance in the life of the nation. It highlights the role of these symbols in expressing independence, national identity, and cultural heritage. The article also emphasizes the importance of state symbols in fostering patriotism and love for the homeland among the younger generation.

Keywords: Uzbekistan, state symbols, flag, emblem, anthem, history, independence, national values, patriotism, heritage.

Kirish

Har bir xalq va har bir millat o'z tarixida mustaqil davlat bo'lishni, o'z bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega bo'lishni orzu qiladi. Chunki davlat ramzlari xalqning g'ururi, or-nomusi, qadriyatlari va o'zligini ifodalovchi eng muhim belgilar hisoblanadi. Ramzlar orqali davlatning mustaqilligi, birligi, tinchligi va tarixiy qadriyatlari namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi ham 1991-yilda mustaqillikka erishgach, o'z ramzlarini yaratish jarayonini boshladi. Bu jarayon xalqimizning uzoq yillar davomida orzu qilgan ozodlik timsoli bo'lib, milliy iftixor va birdamlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Bayroq, gerb va madhiya nafaqat mustaqil davlatning ramzlari, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va ma'naviyatini aks ettiruvchi muqaddas belgilar sifatida qabul qilindi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari — bayroq, gerb va





madhiyaning yaratilish tarixi, mazmuni hamda ularning xalq hayotidagi tarixiy ahamiyati haqida soʻz yuritiladi.

Oʻzbekiston Respublikasining Bayrogʻi

Oʻzbekiston Respublikasi davlat bayrogʻi 1991-yil 18-noyabr kuni Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan. Bayroq mustaqil Oʻzbekistonning eng muhim ramzlaridan biridir. Har bir rang, belgi va shakl oʻz maʼnosiga ega boʻlib, u xalqimizning tarixiy kelib chiqishi, madaniyati va orzularini aks etiradi. Bayroqning umumiy koʻrinishiga eʼtibor qaratsak., u uchta gorizontall rangli chiziqdan iborat: koʻk, oq va yashil. Ularning orasida ikkita ingichka qizil chiziq joylashgan. Bayroqning yuqori qismida esa yarim oy va 12 ta yulduz tasvirlangan. Koʻk rang – osmon, tinchlik va sadoqatni bildiradi. U, shuningdek, Amir Temur davrida Movoronnaxr bayroqlarida ham ishlatilgan boʻlib, tarixiy davomiylilikni eslatadi. Oq rang – poklik, tinchlik va adolat timsolidir. Yashil rang esa tabiat, yangilanish, hayot va oʻsishni anglatadi. Qizil chiziqlar esa xalqimiz hayotiy kuchi, yuragidagi qoni, fidoyilik va birdamlikni ramziy ifoda etadi. Bayroqdagi yarim oy yangi mustaqil davlatning tugʻilishini bildiradi. 12 ta yulduz esa qadimda oʻzbek xalqi uchun muqaddas son boʻlib kelgan. Ular islom taqvimidagi 12 oy, shuningdek, qadimiy Oʻzbekiston hududida mavjud boʻlgan 12 viloyatni ifodalaydi, degan talqinlar bor. Yulduzlar orzular, maqsadlar va kelajak sari intilishning belgisi sifatida ham qaraladi. Bayroqning yaratilishida dizayner Madrahimov Javlonbekning loyihasi tanlab olingan. Bayroqni qabul qilish paytida turli ramziy maʼnolar atrofida keng muhokamalar boʻlgan albatta, bu esa





xalqimizning davlat ramzlariga bo'lgan hurmatini yana bir bor namayon etiradi. Bugun O'zbekiston bayrog'i nafaqat davlat binolari ustida, balki xalqimiz qalbida ham g'urur timsoli bo'lib hilpiraydi. Har bir fuqarodan, ayniqsa yoshlardan, bayrog'imizni qadrlash, uni to'g'ri tutish, himoya qilish va unga hurmat bilan qarash talab qilinadi va bu maktablarda yoshlarga uqtirilinadi. Chunki bu bayroq – bizning mustaqillik, tinchlik va birligimiz ramzidir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat Gerbi

O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi 1992-yil 2-iyul kuni qabul qilingan bo'lib. Gerb — davlatning tarixini, boy tabiati va xalqining mehnatsevarligini aks ettiruvchi timsol sifatida yaratilgan. U doira shaklida bo'lib, markazda quyosh, undan pastda esa Humo qushi tasvirlangan. Humo qushi qadimdan xalq og'zaki ijodida saodat va baxt qushi sifatida tilga olinadi. Uning qanotlari keng yozilgan bo'lib, u erkinlik va tinchlikni ifodalaydi. Ammo u qushni mavjudligi tog'risida malumot yo'q. Gerbning o'ng tomonida g'alla boshloqlari, chap tomonida esa paxta shoxlari tasvirlangan. Bu ramzlar O'zbekistonning asosiy boyliklarini va xalqimizning mehnat bilan bog'liq hayotini ifoda etadi. G'alla — mo'l-ko'pchilik, to'kin-sochinlik ramzi bo'lsa, paxta — Vatanimiz faxri, iqtisodiy mustaqillik va xalqimizning mehnatsevarligini bildiradi. Quyosh esa tinchlik yorqinlik, ezgulik va kelajak sari intilish belgisi hisoblanadi. Gerbning markazida O'zbekiston xaritasi fonida Amudaryo va Sirdaryo tasvirlangan. Bu ikki daryo — hayot manbai, xalqimizning qadimiy madaniyatini bog'lab turgan ramzlar. Gerbning yuqori qismida sakkiz qirrali yulduz joylashgan bo'lib, u “Islom dinining nurli yo'li” va





O'zbekistonning qadimiy sivilizatsiyasini bildiradi. Sakkiz qirrali yulduz ichida esa yarim oy va yulduz tasvirlangan — bu xalqimizning diniy qadriyatlari va milliy an'analarini anglatadi. Gerbning pastki qismida “O'zbekiston” deb yozilgan lenta joylashgan. Bu so'z milliy birlik, g'urur va mustaqillikni ifodalaydi. Gerbning umumiy kompozitsiyasi tabiat, tarix va milliy qadriyatlarning uyg'unligini ko'rsatadi. U xalqimizning tinch, mehnatsevar, ezgulik yo'lidan borayotganini aks ettiradi. Bugungi kunda O'zbekiston gerbi barcha rasmiy hujjatlar, binolar va ta'lim muassasalarida faxr bilan tasvirlanadi. Bu har bir fuqaro uchun faxr va sadoqat ramzidir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi

O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan. Madhiyaning so'zlarini taniqli shoir Abdulla Oripov yozgan, musiqasini esa bastakor Mutal Burhonov yaratgan. Madhiya — bu xalqimizning yurak ovozi, Vatanimizga bo'lgan muhabbat va sadoqatni ifoda etuvchi eng muqaddas qo'shiqlardan biridir. U ijro etilganda har bir fuqaro, ayniqsa yoshlar, qalbida faxr,iftihor, hayajon va mas'uliyat hissini his etadi. Madhiyada O'zbekistonning tabiati, tarixi, mehnatsevar xalqi va kelajakka bo'lgan ishonchi kuylanadi. “Serquyosh hur o'lkam” degan so'zlar har bir o'zbekistonlik uchun Vatanimizning tinchligi, quyoshi va mustaqilligini esatadi.Madhiya matni xalqni birlashtiruvchi kuchga ega. Unda “Yashna, Vatanim, O'zbekistonim!” degan so'zlar bilan Vatanga sadoqat, birlik va g'urur tuyg'ulari aks etgan. Madhiyaning musiqasi baland, jozibali va ruhlantiruvchi ohangda yozilgan. U milliy ruhni, xalqning orzu-





umidlarini musiqiy shaklda ifodalaydi. Har safar madhiya yangraganda, u butun xalqni birlashtiradi, yuraklarga faxr va vatanparvarlik hissini soladi. Bu asar shunchaki qo'shiq emas, balki xalqning o'zligini, g'ururini va mustaqilligini his etishining timsolidir. Madhiya qabul qilingach, u barcha rasmiy tadbirlar, tantanali marosimlar, sport musobaqalari va maktab yig'ilishlarida ijro etila boshlandi. Yoshlar madhiyani o'rganish orqali Vatanga mehr va hurmatni o'z qalbiga singdiradilar. Abdulla Oripovning chuqur mazmunli so'zlari, Mutal Burhonovning samimiy musiqasi bilan uyg'unlashib, O'zbekiston xalqining yuragida abadiy o'rin egallagan. Madhiya — bu mustaqilligimizning musiqiy timsoli, xalqimizning orzusi va ishonchining jarangdor ifodasidir. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining bayrog'i, gerbi va madhiyasi nafaqat davlatning rasmiy belgilaridir, balki xalqning yuragi, g'ururi va tarixini ifoda etuvchi muqaddas timsollardir. Ular bizni o'z ornida birlashtiradi, tarixni eslatadi va kelajak sari ilhomlantiradi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari — bayroq, gerb va madhiya — nafaqat mustaqillik ramzlari, balki xalqimizning uzoq tarixiy yo'lini, azaliy orzularini va milliy o'zligini ifodalaydigan timsollardir. Ularning yaratilishi mustaqil O'zbekiston tarixidagi eng muhim burilish nuqtalaridan biri bo'lib, asrlar davomida xalqimiz orzu qilgan ozodlik g'oyasining amalga oshirilganligini o'zida namyon etiradi. Davlat ramzlari o'zida xalqimizning qadimiy davlatchilik an'analarini, turli tarixiy bosqichlarda shakllangan milliy madaniyat va ma'naviyatni mujassamlashtiradi. Masalan, gerbdagi Humo qushi va quyosh timsoli qadimiy afsonalar, xalq og'zaki ijodi hamda tarixiy davlat ramzlaridagi ma'nolarning davomidir. Bayroqdagi moviy, oq, yashil ranglar esa ajdodlarimiz





e'tiqodi, tabiat bilan uyg'un yashash falsafasi va tinchlikka intilish ruhi bilan o'zaro bog'liq. Madhiyamiz esa tarixiy jarayonlar davomida shakllangan milliy g'urur, erk va Vatanga muhabbat tuyg'ularining badiiy ifodasi hisoblanadi. Shunday ekan, davlat ramzlari faqat bugungi kunning belgisi emas, balki o'tgan asrlar tarixini, xalqning qahramonligini, ozodlik uchun kurashini eslatib turadigan tarixiy meroslar hisoblanadi. Ular millatni birlashtiradi, avlodlar orasida ruhiy bog'liqlikni ta'minlaydi va tarixiy xotirani saqlab qolishga yordam beradi. Har safar bayrog'imiz hilpiraganda, gerbimiz tasviri ko'rinib, madhiyamiz yangraganda — biz faqat hozirgi kunni emas, balki o'tmish ajdodlarimizning orzularini, mehnatini va shu aziz tuproq uchun bolgan kurashini yodga olamiz. Shu bois, davlat ramzlarining tarixiy o'rni — bu xalq xotirasi, millatning birligi va o'zligimizning tayanchidir Ularni qadrlash, hurmat bilan e'zozlash va mazmunini chuqur anglash orqali biz o'z tariximizni, o'z mustaqilligimizni asraymiz. Chunki tarixini bilgan va ramzlariga sadoqatli xalqgina kelajagini mustahkam qura oladi. Bu esa qdiryatga bog'langan kuchli va xalq farovonligini oylaydigan yosh avlod yetkazib chiqarishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan manbalar:

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekiston" nashriyoti, 2023-yilgi nashr.

<https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2018/08/KAMOLOTT-SARI-toplami-01.05.2023.pdf>





2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonuni, 1991-yil 18-noyabr. <https://www.scocenter.uz/post-detail/311>

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "Davlat gerbi to'g'risida"gi qonuni, 1992-yil 2-iyul. <https://iht.uz/download/books/11klass/O'zbekiston%20tarixi%2011%20sinf.pdf>

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "Davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonuni, 1992-yil 10-dekabr. <https://www.coursesidekick.com/english>

5. Prezident.uz rasmiy sayti – "Davlat ramzlari milliy g'urur va mustaqillik timsoli" maqolasi. https://yangiasr.uz/files/books/2024-02-08-06-57-53_a861ad5d30911ff261dcee16f5d67332.pdf

6. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/statistic>

7. Xalq so'zi gazetasining "Davlat ramzlari – milliy o'zligimiz timsoli" maqolasi, 2021-yil. <https://aps.tsuos.uz/storage/users/269/articles/0JjhrFveToRMjEUsDPIOLwpb0hKqalyzdnZhoPQK.pdf>

8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, "Davlat ramzlari" bo'limi. https://pureportal.spbu.ru/files/87339520/_17.05.pdf

9. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi sayti – "Ramzlarimiz tarixidan" maqolasi. https://yangiasr.uz/files/books/2024-02-08-06-57-53_a861ad5d30911ff261dcee16f5d67332.pdf

10. Wikipedia sayti – "O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari" maqolasi. https://buxdu.uz/media/jurnallar/pedagogik_mahorat/2._Pedagogika_nazariyasi_Pedmahorat__7_2025_PDF.pdf